

SHARQ MUTAFAKKIRLARI FALSAFIY QARASHLARIDA ONA VA FARZAND MUNOSABATLARI BORASIDAGI PSIXOLOGIK TAHLILLAR

Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna

- *Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasi professori
v.b., psixologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya. *Maqolada sharq mutafakkirlarining ona va bola munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, farzand tarbiyasida onaning roli xususidagi falsafiy qarashlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *oila, ona, farzand, tarbiya, axloq, munosabat, psixik taraqqiyot, tarbiyaviy ta'sir.*

KIRISH

Qadimdan inson kamoloti borasida bosh qotirgan mutafakkirlar oiladagi o'zaro munosabatlar mavzuga alohida to'xtalib o'tganlar. Eng avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, ota-onaning farzand bilan bo'lgan munosabati uning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatishini chuqur anglab yetgan sharq mutafakkirlarining asarlarida “ona-bola” tizimidagi munosabatning psixologik muammolariga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, Abu Ali ibn Sino o'zining dunyoga mashhur “Tib qonunlari” asarida fe'l-atvori buzuvchi holda bo'lgan ona bolani emizmasligi kerakligini uqtiradi. Shuningdek, alloma biror kasallikka chalinganda hamda kuchli ta'sir qiluvchi dorivor moddalar qabul qilayotganda onaga bolani oziqlantirish tavsiya etilmasligiga e'tibor qaratadi [1]. Albatta, fiziologik holati yomonlashganda onaning farzandni emizmasligi lozimligini tushunish qiyin emas. Ammo ushbu talabning fe'l-atvori nosoz onalarga nisbatan ham tadbiriq etilayotgani ona-bola munosabatlari psixologiyasi nuqtai nazaridan ancha qiziq. Bizningcha, buyuk mutafakkirlarning bunday yondashuvga chaqirishini ikki xil tushunish mumkin. Avvalo, psixosomatik tibbiyot nuqtai nazaridan fe'li buzilgan ayolning psixologik holati uning fiziologik jarayonlariga, shu jumladan, sut tarkibi va miqdoriga ta'sir ko'rsatishi ehtimolini hisobga olish zarur. Ikkinchidan, pedagogik-psixologik nuqtai nazardan yondashganda fe'lida qo'pol nuqsonlar kuzatilayotgan ona farzandini oziqlantirish davomida o'z ruhiy holatidan kelib chiqib bola tarbiyasiga, psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkinligini e'tiborda tutish talab etiladi.

Onaning bola bilan bo'lgan tabiiy yaqinligi o'z navbatida uning savoya darajasini bevosita farzand kamolotini belgilab beruvchi asosiy omilga



aylantiradi. Bunga yaqin o'tmishdan ham, qadim tariximizdan ham ko'plab e'tiroflarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, milliy pedagogika va ma'rifatparvarlik harakatiga katta hissa qo'shgan Mahmudho'ja Behbudiy (1875-1919) onalarni o'qitish naqadar muhimligiga e'tibor qaratadi: “Taraqqiy etgan millatlar onalarni o'qitar ekan, biz avval onalarimizni o'qitib, ularga til o'rgatmog'imiz kerak, chunki bizning ilm va tilsizligimiz ulardandir” [5; 183-b.]. Bu yerda onaning bola umumiy psixik rivojlanishidagi o'rniga e'tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor. Xususan, aynan tilni o'zlashtirish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda onalarning o'qimishli, tillarni egallagan bo'lishi muhimligiga e'tibor qaratilishi zamonaviy psixologiya fani nuqtai nazaridan ham asoslidir. Ma'lumki, og'zaki nutq ko'nikmalari aynan hayotning dastlabki yillarida shakllanar ekan, bunda bevosita bola bilan yaqindan aloqada bo'ladigan, muloqotga kirishuvchi asosiy shaxs sifatida onaning ahamiyati beqiyosdir. Aynan nutqiy rivojlanish uchun sezitiv bo'lgan davrda turli tillarni egallagan, tegishli til malakalari yaxshi rivojlangan onalar tabiiyki o'z farzandining psixologik taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsata oladi. O'z-o'zidan nutqiy rivojlanish esa bevosita oliy psixik jarayon bo'lgan tafakkur rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Abu Hamid G'azzoliy onaning farzand bilan munosabati otaning bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi nuqtai nazaridan ham juda muhim ekanini ta'kidlaydi: “Bola tarbiyasida otaning qat'iyati, so'zidan qaytmasligi muhim ahamiyatga ega. U o'zining bu tabiatini farzandiga doimo sezdirib turishi zarur. Ona ham o'z navbatida otaning aynan shu xususiyatini bolaning yodiga solib turmog'i, shu tarzda farzandini yomonlikdan qaytarmog'i lozim” [2; 65-b.]. Boshqacha aytganda, tavsiflangan vaziyatda ona otaning tarbiyaviy ta'siri uning yo'qligida ham davom etishini ta'minlovchi shaxs sifatida gavdalanadi. Biroq ona ushbu vazifani muvaffaqiyatli bajarishi uchun, bizningcha, shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari bilan bog'liq kamida ikkita shart bajarilishi kerak: birinchidan, bola ota va onasi o'rtasidagi munosabatlar ijobiy ekani, turli masalalarda ularning qarashlarida mutanosiblik mavjudligini bilishi, his etishi lozim (aks holda bola muayyan tarbiyaviy ta'sirning birlamchi manbai otasi ekanligiga ishonmasligi mumkin), ikkinchidan, ona o'zining farzand bilan munosabatida otaga nisbatan bo'lgan ijobiy ustanovkalarni kuchaytirishi zarur (aks holda bola onasini otaga qarshi o'ziga xos munosabat hosil qilish uchun kerak odamdek qabul qila boshlashi mumkin).

Sa'diy Sheroziy farzand onasi uni go'daklik chog'ida qanday parvarishlaganini eslay olganda edi, unga nisbatan ijobiy munosabati ko'p martaga ortishi mumkinligini ta'kidlaydi. [4; 123-b.]. Bundan esa farzandning



onaga nisbatan salbiy munosabatini bartaraf etishi mumkin boʻlgan oʻta qudratli psixologik vosita - ona koʻmagisiz biron narsa qilish qiyin boʻlgan bolalik davridagi hayotdan olingan emotsional yorqin voqealardan iborat boʻlishi mumkinligini faraz qilish holatidan darak beradi.

Bolaning psixologik taraqqiyotida ona roli boshqa maʼrifatparvar ziyoli Rizouddin ibn Faxruddin (1859-1936) tomonidan yozilgan “Oila” risolasida ham batafsil ochib beriladi. Jumladan, muallif “Hatto, buyuk maktablarda-yu oliy fikrli odamlar huzurida ilm oluvchilar ham onalaridan olgan tarbiyalari bilan yasharlar va bu tarbiyani soʻnggi kunlariga qadar saqlarlar. Shu sababdan ham faylasuflardan biri: “insonlar har vaqt xotunlar istagani kabi boʻlajaklar, agarda buyuk va fazilatli odamlarga ehtiyojimiz boʻlsa, xotunlarga buyuklik va fazilat oʻrgatingiz”, demish” [3; 10-b.]. Bu yerda fikrimizcha, ikki jihat, alohida eʼtiborga loyiq: birinchidan, ona bilan boʻlgan bolalikdagi munosabat ortidan shakllanadigan olam haqidagi tasavvurlar, birlamchi xulq-atvor modellari juda mustahkam boʻladi va insonning butun hayoti davomida muayyan taʼsir kuchini saqlab turadi; ikkinchidan, boshqa ijtimoiylashuv institutlari taʼsiri kuchaygandan keyin ham, yaʼni ontogenezning bolalikdan keyingi davrlarida ham ona-bola munosabatlarining psixologik quvvati yoʻqolmaydi.

Eʼtiborli masalalardan biri shundaki, Rizouddin ibn Faxruddin, nafaqat onaning taʼsiri bola taqdiri va hayotini qanchalik hal etishini, balki ular oʻrtasidagi munosabat qanday qurilishi kerakligini ham taʼriflaydi. Xususan, uning fikricha, ona oʻz munosabatida “sabr-toqat, mehribonlik, shafqatu sezgirlikni namoyon etishi”, “uni qattqlik bilan yumshoqlik oʻrtasida, adolat bilan tarbiya qilmogʻi kerak”. Bola esa “onasining buyruqlariga jazo yoki tanbehdan qoʻrqib emas, balki bu hurmatli homiysiga ishonmogʻi-yu, komil sevgani sababidan itoat etadigan boʻlishi” zarur [3; 13-b.]. Bu yerda shu masala ayon boʻlayaptiki, muallif ona munosabatda bolaga boʻlgan taʼsiri uning keyingi hayotida qanchalik ahamiyatga ega boʻlishini ongli tushunishga asoslanishi, bolaning munosabati esa eng yoqimsiz qarorlarda ham qandaydir onalik mantigʻi borligiga samimiy ishonishga tayanishi muhimdir.

Xulosa. Ota-ona va farzand munosabatlari masalasida sharq mutafakkirlari ota-onaning bola psixik taraqqiyotidagi yuksak ahamiyatini taʼriflash barobarida, onaning aynan farzand ijtimoiylashuvi uchun zarur sifatlar shakllanishidagi oʻrniga urgʻu beradilar. Ular onaning bola bilan boʻlgan maʼnaviy-ruhiy yaqinligini aks ettiruvchi muhim belgi-alomatlarga diqqat qaratish borabarida ular oʻrtasidagi aloqaning moddiy asoslarini tavsiflashga, ularning munosabatlarini tabiiy-ilmiy jihatdan ham tushuntirishga harakat qilganlar. Sharq xalqlari milliy va diniy tajribasida



onaning maqomi nihoyatda yuksak ta’riflanishi bilan birga masalaning sof psixologik tomonlari asosan ma’naviy-ruhiy, tarbiyaviy nuqtai nazardan, ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog’liq tafovutlarga alohida e’tibor qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Абу Али ибн Сина Канон врачебной науки: Избранные разделы / сост. У.И.Каримов, Э.У.Хуршут. -Т.: Фан,1993. – 531 с.
2. Abu Hamid G‘azzoliy. Riyozatun-nafs / tarj va so‘z boshi muallifi Rashid Zohid. -Т.:Movarounnahr, 2006. – 80 b.
3. Rizouddin ibn Faxruddin. Oila / [Tarj. va nashrga tayyorlovchi T.Ziyoyev; So‘z boshi I.Irisovniki]. – Т.: Mehnat, 1991. – 58 b.
4. Sa’diy Sheroziy. Hikmatga to’la olam. – Т.: Sharq, 2007. – 256 b.
5. Sharq donishmandlari hikmatlari / Tuzuvchi Ahmad Tursun. –Т.: Sharq, 2006. – 208 b.
6. Абдуллаева, Д. (2023). Оилада ота-она ва фарзанд муносабатларининг ўзига хослиги. - Б. 226-232. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilada-ota-ona-va-farzand-munosabatlarining-ziga-hosligi/viewer>
7. Абдуллаева, Д. (2023). Оилавий тарбия бола шахси ривожланишини белгиловчи омил сифатида. // Педагогика и психологии в современном образовании. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8963>
8. Abdullayeva D. Oila psixologiyasi:-Toshkent: Tafakkur bo`stoni, 2015. - 256 b. <https://library-tsul.uz/ru/oila-psixologiyasi-abdullayeva-d-yarqulov-r-atabayeva-n-2015/>
9. Abdullayeva D.U. Establishing a relationship between a mother and a teenage child. // Frontline social sciences and history journal. Volume 03 №2. 2023. P 18-26. <https://frontlinejournals.org/journals/index.php/fsshj/article/view/314>
10. Abdullaeva D.U. Social factors affecting child education psychological factors. // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. Texas, USA. December 2022. P.154-156.

